



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-132-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-avgustdagi "Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-129-son Farmopi bilan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining faoliyati natijadorligini oshirish, eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish hamda kasbiy darajasini rivojlantirish, shuningdek, xodimlarni kafolatlangan moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilishning yangi tizimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-sonli Farmonining 5-bandiga asosan mahalliy Kengashlar faoliyatini tashkiliy-moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalalarini mahalliy budjet parametrlarida alohida ko‘rsatish orqali mehnatga haq to‘lash, rag‘batlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash shartlarini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat darajasidan past bo‘lmagan holda belgilash nazarda tutilgan.

Mazkur normaga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2025 yil 22 dekabrda "Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) kengashlari kotibiyatlari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida"gi KQ-284-V-sonli qarori bilan xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlari kotibiyatlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat darajasida etib belgilangan.

Ushbu Qarorning 5-bandida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga kotibiyat xodimlari mehnatiga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi bo‘yicha razryadlari va tarif koeffitsientlarini 2- va 3-ilovalarga muvofiq qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash tavsiya etilgan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2025-yil 22-dekabrda "Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlari

kotibiyatlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi KQ-284-V-sonli qarori hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2025-yil 22-dekabrda "Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) kengashlari kotibiyatlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi KQ-284-V-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatlari boshqaruv xodimlarining mehnatiga haq to'lashning yangi tizimi joriy etilganligi, unga ko'ra,

(a) Xalq deputatlari tuman Kengash kotibiyat xodimlarining lavozim maoshini yagona tamoyil asosida mehnatga haq to'lashning yangilangan tarif setkasi hamda ko'p yillik xizmati va lavozimini inobatga olgan holda tabaqalashgan tarif koeffitsientlari asosida shakllantirish;

(b) rag'batlantirish to'lovlarini boshqaruv xodimlari tomonidan erishilgan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida har oylik ustamalar, malaka (martaba) darajalari uchun choraklik hisobot davri yakunlari bo'yicha rag'batlantirish (keyingi o'rinlarda - bonus) to'lovlari shaklida to'lash;

(v) Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyat xodimlarining mehnatiga haq to'lash faqat mazkur Qarorda belgilangan shartlarda amalga oshirilib, Qarorda ko'zda tutilmagan qo'shimcha ustamalar, mukofotlar va boshqa to'lovlar (davlat mukofotlari uchun to'lovlar bundan mustasno) to'lashni taqiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Senat Kengashining mazkur qarori bilan 2026-yil 1-yanvardan boshlab, Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyat xodimlari mehnatiga haq to'lash jamg'armalari

(a) lavozim maoshi;

(b) eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga (KPI) erishganligi uchun lavozim maoshiga har oylik ustamalar;

(v) malaka (martaba) darajalari uchun to'lovlar;

(g) bonus to'lovlarini o'z ichiga olishi, ularning qanday tartibda to'lanishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyat xodimlari mehnatiga haq to'lashning Yagona tarif setkasi bo'yicha razryadlari **1-ilovaga** muvofiq;

Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyat xodimlarining mehnatiga huq to'lash tarif koeffitsientlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Senat Kengashining mazkur qarori bilan Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlari kotibiyatlari xodimlariga beriladigan malaka darajalari uchun lavozim maoshiga qo'shimcha to'lovlar,

malaka darajalari reestri hamda malaka daraja berish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

6. Tuman Kengashi kotibiyat xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi Xalq deputatlari Farg'ona viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrda VII-15-168-11-0-K/25-sonli qarori bilan tasdiqlanganligi ko'rsatib o'tilsin.

7. Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashining 2025-yil 22-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 24-fevral kungi "Xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) Kengashlari kotibiyatlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-101-V-sonli qarori haqida"gi VII-8-48-11-163-K/25-sonli qarorining 1-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmada qoldiraman.

9. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvar kunidan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-132-11-163-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi kotibiyat xodimlari
mehnatiga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi bo‘yicha**

RAZRYADLARI

T/R	Lavozim nomi	Razryadlar
1.	Kotibiyat mudiri	6
2.	Bosh mutaxassislar	3

Xalq deputatlari Fargʻona tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-132-11-163-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari Fargʻona tuman Kengashi kotibiyati xodimlari
mehnatiga haq toʻlash tarif koeyffitsentlari**
(mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdoriga nisbatan)

Razryad	pogʻona					
	1	2	3	4	5	6
	3 yilgacha	3-6 yilgacha	6-10 yilgacha	10-15 yilgacha	15-20 yilgacha	20 yildan yuqori
3.	5,8	6,4	7,1	7,8	8,6	9,4
4.	6,6	7,3	8,0	8,8	9,7	10,6
6.	8,2	9,0	9,9	10,9	12	13,2
7.	8,9	9,8	10,7	11,8	13	14,3

Izox: pogʻona xodimning umumiy ish stajidan kelib chiqib aniqlanadi.

Bunda xodimning umumiy ish staji 3 yilgacha boʻlganda 1-pogʻonaga, 3-yildan 6 yilgacha 2-pogʻonaga, 6 yildan 10 yilgacha 3-pogʻonaga, 10 yildan 15 yilgacha 4-pogʻonaga, 15 yildan 20 yilgacha 5-pogʻonaga, 20 yildan ortiq 6-pogʻonaga toʻgʻri keladi.

Tarif koeyffitsentlari:

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashlari xodimlariga 1,6 barobarga;

Xalq deputatlari viloyat Kengashlari kotibiyatlari xodimlariga 1,4 barobarga;

Toshkent shahridagi Xalq deputatlari tuman Kengashlari kotibiyatlari xodimlariga 1,3 barobarga;

doimiy aholi soni 300 mingdan ortiq bo'lgan tuman (shahar) xalq deputatlari kotibiyatlari xodimlariga 1,1 barobar oshirilgan holda qo'llaniladi. Bunda milliy statistika qo'mitasi tomonidan yil boshida e'lon qilinadigan doimiy aholi soniga muvofiq bir yilda bir marotaba doimiy aholi soni 300 mingdan ortiq bo'lgan tuman(shahar) aniqlanadi.

Tarif stavkasi miqdorini(lavozim maoshini) belgilash uchun tarif koeffitsienti mehnatga haq to'lashning qonunchilikdagi belgilangan eng kam miqdoriga ko'paytiriladi.